**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

100109, Toshkent viloyati., Zangiota tumani tel. 230-32-71, faks 230-32-50 JXU @exat. Uz, info@mgjxu.uz

**chiqish №** 3/22 - 4985 **2022 yil «** 17 **»** 10

**O‘zbekiston Respublikasi**
**Oliy va o‘rta maxsus**
**ta’lim vaziri A.H.Toshqulovga**

**Hurmatli Abduqodir Hamidovich,**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-avgustdagi PQ-345-son qarori “Oilaviy bolalar uylari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi 451-son “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy–vatanparvarlik, ma’naviy–ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasi tashabbusi bilan joriy yilning 11-noyabr kuni soat $15^{00}$da “**Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar farovonligini ta’minlashning strategik modellari**” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Shu munosabat bilan Sizdan, vazirlik tasarrufidagi Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini ishtirok etishi hamda ular tomonidan maqola va tezislar 5-noyabrga qadar yuborilishida amaliy yordam ko‘rsatishingizni so‘raymiz.

Hamkorlik uchun oldindan minnatdorlik bildiramiz

**Ilova:** axborot xati 2 (ikki) varaqda, nomaxfiy.

Hurmat bilan,

**Universitet boshlig‘i**
**polkovnik** **M.X.Rustambayev**

JXU
Chop etildi: 2 nusxada.
1-nusxa – manzilga.
2-nusxa – yig‘ma jildga.
Bajardi va Ijrochi: Sh.Akramova
*Tel: (99) 838-75-09, (88) 170-69-00, (97)714-06-38,*
*e-mail:* *e-conference@umail.uz*
14.10.2022-yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi**

# AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-avgustdagi PQ-345-son qarori “Oilaviy bolalar uylari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi 451-son “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy–vatanparvarlik, ma’naviy–ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasi tashabbusi bilan joriy yilning 11-noyabr kuni soat $15^{00}$da **“Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar farovonligini ta’minlashning strategik modellari**” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

**Konferensiyada quyidagi masalalar muhokama qilinadi:**

1. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oila tarbiyasiga olishining ijtimoiy masalalari
2. Oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olishning dolzarb muammolari
3. Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar farovonligini ta’minlashda hamkorlikning o‘rni

Konferensiya yakuni bo‘yicha bildirilgan takliflar va ishlab chiqilgan nazariy xulosalar, ilmiy tahlillar asosida O‘zbekiston Respublikasida oilaviy bolalar uylari hamda u yerda tarbiyalanayotgan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning farovonligini ta’minlash bo‘yicha strategik modellar loyihalari ishlab chiqiladi hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar mutasaddi tashkilotlarga taqdim qilinadi.

Shu bilan birga, **“Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar farovonligini ta’minlashning strategik modellari”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallarini to‘plam shaklida chop etilishi rejalashtirilgan.

Konferensiyaning rasmiy tili: o‘zbek va rus tillari.

Konferensiya oflayn va onlayn tarzida tashkillashtiriladi.

**Ma’ruza va tezislarini rasmiylashtirish tartibi:**

**Taqdim etiladigan maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yilgan talablar:**

**Ilmiy maqola mavzusi (Title).** Tezis mavzusi ilmiy asoslangan va shakllantirilgan bo‘lib, tezis tadqiqot yo‘nalishini aniq ifoda etishi lozim.

**Ilmiy maqola muallifi to‘g‘risida ma’lumot (Author information).** Ushbu qatorda muallif(lar)ning ismi-sharifi (otasining ismi bilan), ilmiy darajasi, lavozimi, ish joyi va muloqot telefonlari ko‘rsatiladi.

**Tezis mazmunida** tadqiqot muammosi, dolzarbligi, erishilgan natijalari va xulosa aks etishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References).** Ushbu qismda tadqiqotda foydalanilgan barcha adabiyotlarning ro‘yxati [1], [2] ketma-ketligida quyidagi shaklda keltiriladi:

- ✓ mualliflar ismi-sharifi, kitob nomi, nashr manzili, nashriyot nomi, yili, betlari;
- ✓ mualliflar ismi-sharifi, maqola nomi, jurnal nomi, nashri, yili, soni, betlari.

**Tezis matni**. Matn «Times New Roman» shriftida, 14 kegelda bo‘lib, qatorlar oraliqlari masofasi 1,5 intervalda bo‘lishi lozim. Maqola matni sahifasining barcha (o‘ng, chap, yuqori va quyi) tomonidan 2 santimetrdan iborat masofa qoldiriladi. Tezisning maksimal hajmi 5 bet minimal hajmi 3 bet bo‘lishi lozim.

Tezislarning mazmuniga, ma’lumotlar mualliflarga tegishliligi uchun va keltirilgan manbalarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul. Talabga javob bermaydigan materiallar konferensiya to‘plamiga kiritilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Tezis-maqolalar, asoslantirilgan takliflar hamda ilmiy xulosalarni 2022-yil 5-noyabr kuniga qadar *e-conference@umail.uz* elektron pochtasi orqali yuborishingiz mumkin.

Tezis-maqolalar, asoslantirilgan takliflar hamda ilmiy xulosalarda davlat tomonidan qo‘riqlanadigan va maxsus ro‘yxatlar bilan chegaralab qo‘yiladigan ma’lumotlar aks ettirilgan hollarda *O‘zbekiston Respublikasining davlat sirlarini saqlash sohasidagi qonunchiligi talablari asosida Universitet manziliga yuborilishi talab etiladi.*

**Konferensiyaning rasmiy tillari:** o‘zbek, rus

Ilmiy-amaliy konferensiyada maqola bilan ishtirok etish bepul. Konferensiya materiallar to‘plami elektron shaklda taqdim etiladi.

**Tashkiliy qo‘mita manzili:** Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni - O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

**Konferensiya o‘tkazish uchun mas’ul:** Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi.

**Murojaat uchun telefonlar:** (99) 838-75-09, (88) 170-69-00, (97)714-06-38
Elektron pochta: *e-conference@umail.uz*

**Ishtirokchi anketasi**

| | |
|---|---|
| **Muallifning to‘liq F.I.SH.** | |
| **Shahar** | |
| **Ish joyi** | |
| **Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni** | |
| **Maqola nomi** | |
| **Sho‘ba nomi** | |
| **E-mail** | |
| **Telefon** | |